



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Sanobar Rasulova¹

¹ Qashqadaryo viloyati PYMO'MM Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINIF TEXNOLOGIYA DARSLARIDA INTERAKTIV METODLARNI OO'LLASHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf Texnologiya darslarida interaktiv metodlarni qo'llashning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan. Shuningdek, Texnologiya darslarida foydalanishga doir interaktiv metoddan numana keltirilgan.

Kalit so'zlar: Texnologiya darslari, interaktiv metod, amaliy faoliyat, malaka, ko'nikma, ijodiy qobiliyatlar.

Kirish (Introduction). O'quvchilarni tarbiyalash va ularni bo'lajak amaliy faoliyatga tayyorlashda mehnat malakalari va ko'nikmalari katta rol o'ynaydi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga texnologiya ta'limini berish vazifalaridan biri ularda bir qator texnologiya malakalari va ko'nikmalarini shakllantirishdir. Texnologiya malakalari va ko'nikmalari o'quvchilarni mehnat faoliyatiga, ijtimoiy foydali ishlab chiqarish mehnatini bajarishga jalb qilish sharti hamdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Ko'nikma – bu kishining bilim va tajriba asosida egallangan, ma'lum harakatni ongli bajarishga bo'lgan qobiliyatdir. Masalan: kartonni kesa bilish ko'nikmasi, qaychini to'g'ri ushlay bilish, harakatni aniq muvofiqlashtirish, yo'nalish, kuch va bosimning tengligini saqlash, qomatni muvofiq keluvchi tarzda tutishni anglatadi. Bu o'rinda ustalik bilan harakat qilib, ma'lum ishning sur'ati va aniqligiga rioya qilish kerak. Aks holda ish qo'pol chiqishi mumkin. Berilayotganini o'zlashtirish – bu o'zgarlar tajribasining natijalarini o'z tajribasining natijalari bilan qiyoslashdir.

Malaka – bu faoliyatning mashq qilishlar jarayonida yetilgan, mujassamlashgan tajribadir. Bu tez va aniq bajarish, mashq qilish tufayli tarkib topgan ko'nikmani anglatadi. Biroq

malakaning takomillashuv darajasi o'qitishning turli bosqichlarida turlichadir. Uning strukturasi ham o'zgaruvchandir. Mashqlar jarayonida o'quvchilar bajarilayotgan harakatlar murakkablashib borgan sari, asta-sekin oddiy malakalarning murakkab malakalarga birlashuvi sodir bo'ladi.

Texnologiya darslarida o'quvchilarning fanga doir ko'nikma va malakalarini shakllantirishda o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini, o'qitish jarayonini tashkil qilishning yangi shakllarini amaliyotga joriy qilish, shuningdek, o'qituvchilarning innovatsion yondashuvga asoslangan zaruriy ko'nikmalarini shakllantirish nihoyatda muhimligidan kelib chiqib, o'quv dasturlari zamonaviy talablar asosida takomillashtirilmogda, ta'lim mazmuni modernizatsiya qilinmogda. Zero, jahon sivilizatsiyasi davri hozirgi avlodni mumtoz pedagogik nazariyalar bilan emas, balki yangilangan o'quv-tarbiya tizimi asosida tarbiyalashni nazarda tutadi. Shu bois maktabgacha ta'limdan to umumiy o'rta ta'limgacha bo'lgan barcha o'quv-tarbiya tizimini yangilash va takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir.

Shundan kelib chiqib, jamiyat ehtiyoji va talablari asosida inson kapitalini mehnat bozorida raqobatbardosh etib tarbiyalashga yo'naltirilgan sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishni nazarda tutgan holda, texnologiya darslarini o'tkazish uchun ta'lim metodlarini tanlashga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash tobora keng tus olmogda. O'quvchilar uchun mo'ljallangan ta'limdan ko'zlangan maqsad bitta – o'quvchini mustaqil hayotga tayyorlash, o'z xoxishi, istaklari va qiziqishlari bo'yicha mustaqil bilim egallash, egallangan bilimlarini esa kerakli o'rinlarda unumli qo'llay olish, dastlabki kasb ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bu pedagogning asosiy va yuksak vazifalaridan biri hisoblanadi. Ana shunday vazifalarni ado etish uchun dars jarayonida interaktiv metodlarni qo'llash – eng samarali usul ekanligi ahamiyatlidir. Interaktiv so'zi inglizcha "interaction" so'zidan olingan bo'lib, "inter" – o'zaro, birgalikda, "act" – harakat, ya'ni o'zaro, birgalikdagi harakat degan ma'nolarni bildirib, hamkorlikda o'qitishga asoslanadi. Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interaktiv metodlar asosidagi faoliyatni tashkil etishda aniq va rejalashtirilgan maqsadlar o'z aksini topadi. Interaktiv metodlar bir vaqtda bir necha masalani hal etish imkoniyatini beradi. Bulardan asosiysi – o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalarini rivojlantiradi, o'quvchilar orasida emotsional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, dars jarayonida interfaol metodlarni qo'llash o'quvchilarning asabiy zo'riqishlarini bartaraf qiladi, ular faoliyatining shaklini almashtirib turish, diqqatlarini dars mavzusining asosiy masalalariga jalb qilish imkoniyatini beradi. Eng asosiysi, o'quvchilar o'zlarining intellektual darajalarini anglab yetadilar.

Interaktiv metodlar ta'limdan ko'zlangan maqsadga muvofiq tanlanishi (yangi bilim berish, ko'nikma va malakalarni shakllantirish, bilimlarni mustahkamlash va takrorlash), o'quv fanining xususiyatlari hisobga olinishi bu darsning qiziqarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Demak, to'g'ri tanlangan va tashkil etilgan interaktiv metodlarga ta'lim-tarbiyaviy ishlarida samaradorlikka erishishni ta'minlaydi. Buning uchun interaktiv metodlarning mezonlarini aniqlash zarur.

Interaktiv metodlarning asosiy mezonlari quyidagilar:

- ✓ norasmiy bahs-munozaralar;
- ✓ o‘quv materilaini erkin bayon etish va ifodalash;
- ✓ o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyat yaratish;
- ✓ kichik guruh, katta guruh va jamoa bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish;
- ✓ yozma ishlar bajarish;
- ✓ nazariy bilim berishdan amaliyotning ko‘pligi va boshqalar.

Interaktiv metod o‘quvchilarda ta’limning mazmunini mustaqil o‘zlashtirib olish va o‘z fikr, xulosalarini shakllantirish uchun motiv hosil qiladi va quyidagi ko‘nikmalarni shakllantirib, rivojlantirib boradi:

- ✓ o‘z oldiga maqsad qo‘yish;
- ✓ erkin va mustaqil fikrlash;
- ✓ o‘z fikr-mulohazalarini bayon etish va uning to‘g‘riligini boshqalarga isbotlash;
- ✓ yakka va juftlikda ishlash:
- ✓ hamkorlikda ishlash;
- ✓ ijodiy fikrlash;
- ✓ ma’lumotlarni tahlil qilish;
- ✓ xulosalar chiqarish;
- ✓ o‘z iqtidorini namoyish qilish;
- ✓ berilgan imkoniyatlardan eng ma’qulini tanlash;
- ✓ bahs-munozaraga kirisha olish.

Quyida Texnologiya darslarida foydalanishga doir interaktiv metoddan namuna keltiriladi.

“Kundaliklar” metodi – ma’lum vaqt oralig‘ida guruhning har bir a’zosi tomonidan tug‘ilgan g‘oyalari yozib boriladi va ular guruhda tahlil qilinib, bitta o‘rtacha fikrga kelinadi.

Metodning maqsadi: o‘quvchilarda yakka va jamoaviy ijodiy faoliyat ko‘nikmalarini, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, turli shakldagi ijodiy faoliyatni egallash malakalarini hosil qilish.

O‘tkazish tartibi:

birinchi bosqich: guruhning har bir ishtirokchisi yakka holda ishlash uchun o‘qituvchi tomonidan tayyorlab kelingan tarqatma materiallardan birini tanlab oladi. Tarqatma materialda mavzu yuzasidan tayanch tushunchalarning nomi yozilgan. O‘quvchi yakka tartibda tayanch tushunchalar haqida bilganlarini jadval ko‘rinishida shakllantiradilar.

ikkinchi bosqich: o‘quvchilar yakka tartibda mavzuga doir tayanch tushunchalar ishtirokida mavzuga doir bugungi faoliyatlarini og‘zaki va yozma tarzda ifodalaydilar. Mazkur vazifa jamoaviy tarzda ham amalga oshirilishi mumkin.

uchinchi bosqich: o‘quvchilarning mavzuni o‘zlashtirganlik darajasini aniqlashga doir savol-javob o‘tkaziladi.

to'rtinchi bosqich: o'quvchilar kichik guruhlarda mavzu yuzasidan bugungi amaliy mashg'ulotni amalga oshiradilar (mavzuning maqsadiga ko'ra yasash, tayyorlash faoliyatini amalga oshiradilar)

beshinchi bosqich: kichik guruhlar taqdimoti;

oltinchi bosqich: o'quvchilar faoliyatini baholash.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Ko'rinadiki, ilmiy-texnik tafakkurning borgan sari takomillashuvi, o'quvchilarning fan-texnikaning jo'shqin rivojlanishida faol ishtirok etishlari faqat ta'lim mazmunini emas, balki o'qitish jarayonining usuli va tashkil etilishini, o'qitishga qiziqishini, ijodiy qobiliyatini, egallagan bilimlarini amalda qo'llay bilish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa umumiy o'rta ta'lim zimmasiga o'quvchilarda ijodiy yondashuvga ehtiyoj uyg'otish, ijodiy qobiliyatlar, har qanday faoliyatga ijodiy yondashish asoslarini tarkib toptirishga, ijodiy masalalarni mustaqil hal etishga o'rgatish vazifasini yuklaydi.

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Mavlonova R.A., Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Mehnat va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T.: TDPU. 2007.
2. Sanaqulov X.R. Texnologiya 2-sinf darsligi bo'yicha o'quv-metodik qo'llanma. T.: 2021.
3. Sanaqulov X.R., Nasrullayeva F.A., Alaviddinova N.M. Texnologiya 3-sinf darsligi. T.: 2022.
4. Shodiyeva M.J. Educational technologies to be used in formal, non-formal, informal education of continuous professional development of primary class teachers // International Journal of Pedagogics. ISSN – 2771-2281. Volume 02. Issue 10. Pages: 27-32. Sijif impact factor: (2021: 5. 705), (2022: 5. 705). OCLC – 1121105677. METADATA IF – 5.689. Publisher: Oscar Publishing Services. <http://theusajournals.com/index.php/ijp/article/view/407>
5. Shodiyeva M.J. Improving Vocational and Methodological Training of Primary School Teachers in The Process of Self-Training // Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, vol. 12, special issue – 6, 2020. ISSN: 1943-023X. –P 612-619. DOI: 10.5373/JARDCS/V12SP6/SP20201071. <https://www.jardcs.org/abstract.php?id=5209>.
6. Shodiyeva M.J. Zamonaviy ta'lim muhitida boshlang'ich sinf o'qituvchilarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish texnologiyalarini an'anaviy va elektron ta'lim integratsiyasi asosida takomillashtirish modeli // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2022. – 5-son. – B.1048-1053. (13.00.00; №30)